

AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 4 Issue 07 | pp. 167-174 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

DEHQONCHILIKNI DAVLAT TOMONIDAN QO‘LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH ASOSIDA INNOVATSION RIVOJLANTIRISH YO‘NALISHLARI



Yuldashev Giyos Turabekovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Samarqand filiali mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Mazkur maqola dehqonchilikni innovatsion rivojlantirishda iqtisodiy ko‘rsatkichlarni tizimlashtirish yo‘llariiga bag‘ishlangan bo‘lib, unda dehqonchilikda innovatsion asosda ishlab chiqarish samaradorligini baholash ahamiyati, ilmiy-texnika taraqqiyoti boshqaruvining asosiy yo‘nalishlari, innovatsion rivojlanishning xarajatlar va vaqt bo‘yicha indikatorlari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: dehqonchilik, innovatsion rivojlanish, samaradorlik, indikator, iqtisodiy ko‘rsatkich.

Аннотация. Данная статья посвящена способам систематизации экономических показателей инновационного развития сельского хозяйства, включает значение оценки эффективности производства на инновационной основе в сельском хозяйстве, основные направления управления научно-техническим развитием, показатели инновационного развития. разработка с точки зрения затрат и времени.

Ключевые слова: сельское хозяйство, инновационное развитие, эффективность, показатель, экономический показатель.

Abstract. This article is devoted to ways of systematizing economic indicators of innovative development of agriculture, includes the importance of assessing the efficiency of production on an innovative basis in agriculture, the main directions of managing scientific and technological development, and indicators of innovative development. development in terms of cost and time.

Key words: agriculture, innovative development, efficiency, indicator, economic indicator.

Kirish

Innovatsion jarayonlar respublikamizda fan-texnikani taraqqiy ettirish bilan bevosita bog‘liq hisoblanadi. Ayniqsa, O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligini innovatsion asosda shakllantirish, bunda agrar soha korxonalarini uchun yangi, sifatli qishloq xo‘jaligi texnikalari, yangi zamonaviy texnologiyalar shaklida namoyon bo‘ladi. Respublika innovatsion qishloq xo‘jaligi bir tomondan zamonaviy yangi qishloq xo‘jaligi texnikalari, xaydov, ishlov beruvchi traktorlar, paxta terish mashinalari ko‘rinishida bo‘lsa, ikkinchi tomondan zamonaviy innovatsion texnologiyalar esa innovatsiyaga asoslangan yerlarni

tomchilatib sug'orish, kompleks hosilni yig'ib olish zamonaviy mahsulotlarni qayta ishlash sifatida namoyon bo'ladi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan takidlanganidek "... . Innovatsiya - bu kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo'lsak, uni aynan innovatsion g'oyalar, innovatsion yondashuv asosida boshlashimiz kerak."¹

Jahon glaballashuv jarayoni qishloq xo'jaligi dehqonchilik tizimini isloh qilish taqozo etib, soxada tizimli tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish xamda zamonaviy tejamkor texnologiyalarini joriy etish natijasida dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni ko'paytirish va samaradorligini oshirishga erishish talab etadi. Shu bois, dehqonchilik tizimini innovatsion faoliyatini rag'batlantirishda sohada ilmiy va innovatsion yutuqlarni keng joriy etishni amalga oshirish, taraqqiyot tendensiyalarini o'rganish, innovatsion asosda rivojlanishga tasir etuvchi omillarni tadqiq etish xamda samarali mexanizmlarini shakllantirish muhim strategik vazifa qilib belgilangan.

Adabiyotlar tahlili

Qishloq xo'jaligi dehqonchiligining kelib chiqishi, qishloq xo'jaligi faoliyatini yuritish, uning funksiyalari, qishloq xo'jaligini iqtisodiyotning faol subyekti sifatida samarali tashkil etish muammolari xorijiy tadqiqotchilardan, xususan N.I.Boychuk, YE.S.Komeyeva, M.A.Axmedova, A.N.Romanov, G.I.Shmelev, V.V.Radayev va V.V.Shixoves lar tomonidan tadqiq etilgan.

O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jaligi dehqonchiligi mahsulotlarini yetishtirishni rivojlantirish, uning moliyaviy-iqtisodiy vazifalari, ishlab chiqarish hamda fermer xo'jaliklari o'rnini oshirish yo'nalishida B.B.Berkinov, R.Xusanov, N.Xushmatov, F.A.Axmedov, U.Q.Axmedov, G.Samiyeva va boshqalarning ilmiy ishlarida e'tirofqa molik ilmiy-nazariy va amaliy natijalar olingan. Ammo, dehqon xo'jaliklari va ularga xizmat ko'rsatish subyektlari o'rtasidagi munosabatlarni yagona tizim sifatida innovatsion, xususan raqamlashtirish orqali samarali tashkil etish sohaning dolzarb masalalaridan biri sifatida saqlanib qolmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur maqolada iqtisodiy tahlilning analiz va sintez, induksiya va deduksiya, taqqoslama kabi an'anaviy usullardan foydalanildi. Iqtisodchi olimlarning dehqonchilikni rivojlantirishga doir ilmiy-amaliy qarashlari tahlil qilindi va natijalari asosida xulosalar shakllantirildi.

Tahlil va natijalar

Qishloq xo'jaligini rivojlantirishda dehqonchilik soxasining alohida o'rnini va ahamiyati mavjud bo'lib, ushbu sohani innovatsion asosda rivojlantirish davlat tomonidan qo'llab-qo'vvatlashga bog'liq hisoblanadi.

O'zbekistonda rivojlangan davlatlar singari qishloq xo'jaligi dehqonchiligini innovatsion asosda rivojlantirishning barcha imkoniyatlar mavjud.

Respublikamizda qishloq xo'jaligi dehqonchiligini innovatsion asosda jadal taraqqiyotini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash O'zbekiston Respublikasining bir qator miyoriy hujjatlarida o'z huquqiy asosini topgan. Jumladan, bunga O'zbekiston


¹ Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi.- T.: "O'zbekiston" NMIU, 2018, 23 bet

Respublikasi Prezidentining PF-60-sonli (2022-yil 28-yanvar) farmoni bilan tasdiqlangan “2022-2026 yillarga mo’ljallangan Yaangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”, shuningdek, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son farmoni bilan tasdiqlangan “O’zbekiston-2030” strategiyasi hamda 2019-yil 23-oktabrdagi PF-5853-son formoni bilan tasdiqlangan “O’zbekiston Respublikasi qishloq xo’jaligini rivojlantirishning 2020-2023 yillarga mo’ljallangan strategiyasini tasdiqlash to’g’risidagi” qarorlari muhim meyoriy-huquqiy asos hisoblanadi.

Shunday ekan, O’zbekistonda dehqonchilikni innovatsion asosda kelgusida taraqqiy ettirish nixoyatda dolzarb va ayniqsa bunda davlat tomonidan tartibga solish masalasini chuqur tadqiq etishni taqozo etadi.

Tadqiqotlar shuni ko’rsatmoqdaki, dehqonchilikni aloxida soha sifatida davlat tomonidan tartibga solish jarayonida o’ziga xos zaruriyati mavjud. Bular jumlasiga **birinchidan**, dehqonchilikni faoliyati boshqa sohalar singari davlat tomonidan belgilab beriladigan huquqiy - meyoriy xujjatlarga asoslanishi, **ikkinchidan** qishloq xo’jaligi dehqonchilik maxsulotlarini ishlab chiqarish sifatini davlat nazoratida ekanligi, **uchunchidan** dehqonchilikni keyingi taraqqiyoti innovatsiyaga bog’liq bo’lib uni rivojlantirish uchun davlatning qo’llab-quvvatlashi zarurligi bilan belgilanadi.

Bizning fikrimizcha, qishloq xo’jaligi dehqonchiligini innovatsion rivojlantirishni davlat tomonidan qo’llab quvvatlashning uchta turlarga ajratib ko’rsatish maqsadga muvofiq (1-rasm). Ularga pul kredit siyosati, fiskal siyosat, ma’muriy-huquqiy usullarga asoslangan turlarini kiritish mumkin. Ayniqsa bunda, qishloq xo’jaligi dehqonchiligini qo’llab quvvatlash uchun markaziy bank tomonidan maqsadli valyuta intervensiyalarining o’tkazilishi, fermer xo’jaliklarini subsidiyalash, mikroqarz ajratish kabilar muhim ahamiyatga ega.



1-rasm. Qishloq xo’jaligi dehqonchiligini innovatsion asosda rivojlanishini davlat tomonidan qo’llab-quvvatlash turlari.²


Davlat agrar siyosatida “yumshoq” pul kredit siyosatini amalga oshirishda, ya’ni ssuda foizlarini pasaytirib pul taklifini ko’paytirishi fermer subyektlari uchun aylanma mablag’larning ko’payishini ta’minlaydi. Ammo bunda, albatta, inflyatsiya darajasining keskin oshib ketishini oldini olgan holda qaror qabul qilish muhim hisoblanadi.

² Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Davlat tomonidan qishloq xo'jaligi dehqonchiligini innovatsion rivojlanishini qo'llab quvvatlashning yana bir turi bu fiskal siyosat hisoblanib, unga ko'ra sohada soliqlar oqimini nazorat qilish siyosati amalga oshiriladi. Bunda qishloq xo'jaligi dehqonchiligini olib boruvchi fermer subyektlari uchun soliq yukini pasaytirish, soliq ta'tillarini berish, soliq imtiyozlarini ajratish kabi chora tadbirlar o'tkaziladi.

Qishloq xo'jaligi dehqonchiligini innovatsion asosda rivojlantirishda fermer xo'jaliklariga davlat ma'muriy-huquqiy usullar orqali ta'sir qilib subyektlari faoliyatiga to'sqinlik qiluvchi omillar ta'siri pasaytiriladi. Masalan, bunga ma'muriy asosda byurokratik to'siqlarni kamaytirish, biznes tekshiruvlari sonini qisqartirish misol bo'ladi.

Shu bilan birga, qishloq xo'jaligi dehqonchiligini rivojlantirishda davlat va fermer xo'jaliklari subyektlari qarorlariga ta'sirini uchburchak shakldagi diagramma ko'rinishida tasvirlash mumkin (2-rasm).



2-rasm. Qishloq xo'jaligi dehqonchiligini innovatsion rivojlantirishda davlatning fermer xo'jaliklari subyektlariga ta'siri.³

Qishloq xo'jaligi dehqonchiligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash asosida respublika iqtisodiy taraqqiyotini belgilovchi quyidagi shart-sharoitlar vujudga keladi. Jumladan:

- qishloq xo'jaligi dehqonchiligini innovatsion asosda jadal rivojlantirish orqali, axolini eng muhim zaruriy oziq-ovqat va sanoat maxsulotlari bilan taminlaydi.
- qishloq xo'jaligi dehqonchiligini innovatsion asosda rivojlanishiga erishib, sohani raqamli texnologiyalar asosida (qo'shimcha moliyaviy imkoniyatlar yaratib) tezkor taraqqiyotini ta'minlaydi;
- qishloq xo'jaligi dehqonchiligini innovatsion taraqqiyoti qishloqda ishga muhtoj aholini ish bilan ta'minlashga yordam beradi.
- qishloq xo'jaligi dehqonchiligini innovatsion rivojlanishi natijasida narxlar va pul muomalasi barqarorligiga erishishga imkoniyati yaratiladi.
- qishloq xo'jaligi dehqonchiligini innovatsion rivojlanishi respublika va uni hududlarida ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydi.

³ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Alohida ta'kidlash zarurki, O'zbekistonda qishloq xo'jaligi dehqonchiligini innovatsion rivojlantirish uchun davlat tomonidan qo'llab-qo'vvatlash asosida muxim meyoriy, huquqiy, asoslari shakillantirilgan bo'lib, ayniqsa bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevni 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli Farmoniga asosan "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning tarrahiyot strategiyasi" da o'z ifodasini topgan. Jumladan, strategiyaning 4-maqsadida ta'kidlanganidiki "Davlat boshqaruv organlari faoliyatini "fuqarolarga xizmat qilishga yo'naltirish" tamoyili asosida transformatsiya qilish belgilangan". Shuningdek ushbu strategiyada ko'rsatilgan "Davlat xalqqa xizmat ko'rsatishi shart" g'oyasini amaliyotga tatbiq etishni nazarda tutuvchi "xalqparvar davlat milliy dasturi izchil amalga oshirilishini ta'minlash" vazifasi belgilab berilgan.

O'zbekiston Respublikasida davlat tomonidan yaratilgan shart-sharoitlar asosida qishloq xo'jaligi dehqonchiligi bilan shug'ullanuvchi fermer xo'jaliklarini innovatsion asosda rivojlantirish bo'yicha qo'yidagi yangi iqtisodiy imkoniyatlarni yaratadi:

Birinchidan, sifatli qishloq xo'jaligi dehqonchiligi innovatsion mahsulotlarini yaratuvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlashni yo'lga qo'yiladi.

Ikkinchidan, qishloq xo'jaligi dehqonchiligida ilm-fan natijalarini amaliyotga qo'llash asosida yangi texnologiyalarni sohaga tadbiq etiladi.

Uchinchidan, qishloq xo'jaligi dehqonchiligi bilan shug'ullanuvchi fermer xo'jaliklaridagi faoliyatini raqamlashtirish asosida sohada turli korrupsion xolatlarni oldi olinadi va "pinxoniy iqtisodiyot" ga barxam beriladi.

To'rtinchidan, qishloq xo'jaligi dehqonchiligi sohasi bilan iqtisodiyotning boshqa tarmoqlaridagi korxonalar bilan xamkorlik intigratsiya aloqalari kuchaytiriladi.

Beshinchidan, qishloq xo'jaligi dehqonchiligi bilan shug'ullanuvchi fermer xo'jaliklari uchun xorijiy kapital asosida innovatsion rivojlantirishga qulay shart-sharoitlar yaratiladi.

Oltinchidan, tashqi va ichki investorlarni qishloq xo'jaligi dehqonchilik tarmog'iga kiritishni ko'paytirish orqali sohada innovatsion samaradorlikka erishiladi va boshqa shu kabilardan iborat.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, respublikada qishloq xo'jaligi dehqonchiligini innovatsion taraqqiyotini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni rivojlantirishning asosiy mexanizmlari mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iborat (1-jadval).

1-jadval.

Qishloq xo'jaligi dehqonchiligini innovatsion asosda rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning asosiy mexanizmlari⁴

Iqtisodiy	Tashkiliy-huquqiy	Moliyaviy
1. qishloq xo'jaligi dehqonchiligini innovatsion asosda rivojlantirishda narx siyosatini amalga oshirish.	1. qishloq xo'jaligi dehqonchilik mahsulotlari ishlab chiqaruvchi suyektlarning tashkiliy boshqaruv tuzilmasini takomillashtirish.	1. qishloq xo'jaligi dehqonchiligini innovatsion rivojlantirish bo'yicha investitsiya kiritishni rag'batlantirish.
2. qishloq xo'jaligi dehqonchiligini innovatsion asosda taraqqiy ettirish va	2. Innovatsiga asoslangan qishloq xo'jaligi dehqonchiligini rivojlantirish bo'yicha meyoriy-	2. Dehqonchilik sohasida innovatsion faoliyat uchun

⁴ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

<p>iqtisodiy natijadorlikka erishishni ta'minlovchi soha malakali mutaxassisleri bilan ta'minlash.</p> <p>3. qishloq xo'jaligi dehqonchiligida fermer xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash hisobiga innovatsiyaga asoslangan modernizatsiyalash va deversifikatsiyalashni amalga oshirish.</p> <p>4. Qishloq xo'jaligi dehqonchiligini innovatsion iqtisodiy taraqqiyoti uchun xorijdan yangi texnologiyalarni olib kirish</p> <p>5. Dehqonchilikla innovatsion maxsulotlarni ishlab chiqarishni iqtisodiy qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirishni kuchaytirish.</p>	<p>huquqiy xujjatlarini takomillashtirish.</p> <p>3. dehqonchilik sohasida davlat tomonidan oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida malakali kadrlarni tayyorlashga erishish.</p> <p>4. qishloq xo'jaligi dehqonchiligini innovatsion asosda rivojlantiruvchi hududiy innovatsion dasturlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash.</p> <p>5. qishloq xo'jaligi dehqonchiligini boshqa tarmoqlar bilan integratsion aloqalarni kuchaytirish.</p> <p>6. qishloq xo'jaligi dehqonchiligida davlat tomonidan yangi raqamli axborot bilan ta'minlash bo'yicha boshqaruv tizimini shakllantirish.</p> <p>7. qishloq xo'jaligi dehqonchiligi bo'yicha innovatsion mahsulot ishlab chiqaruvchi va iste'molchilar o'rtasidagi tashkiliy munosabarlarni rivojlantirish.</p>	<p>imtiyozli kreditlash tizimidan keng foydalanishni yo'lga ko'yish.</p> <p>3. qishloq xo'jaligi dehqonchiligini innovatsion rivojlantirishda budjet soliq (fiskal) siyosatni kengaytirish</p> <p>4. qishloq xo'jaligi dehqonchiligini innovatsion taraqqiyotini ta'minlashga yo'naltirish maqsadida investorlarga imtiyozlar berish va qulay investitsion muhit yaratish.</p> <p>5. qishloq xo'jaligi dehqonchiligiga jalb etilgan davlat moliyaviy resurslaridan samarali foydalanish.</p> <p>6. Qishloq xo'jaligi dehqonchiligini innovatsion asosda rivojlantirish uchun moliyaviy ko'mak yaratuvchi subsediya, suvenssiya va boshqa shu kabi mexanizmlardan foydalanish.</p>
--	---	---

Tadqiqot natijalariga ko'ra, qishloq xo'jaligi dehqonchiligini davlatning qo'llab-quvvatlash natijasida sohada innovatsiyaga asoslangan raqobatbardoshlik darajasini ta'minlash bo'yicha quyidagi natijalarga erishiladi. Jumladan:

1. Respublikaning qishloq xo'jaligi dehqonchiligi mahsulotlarini sotish bo'yicha tashqi bozordagi o'rni oshib, mahsulotlar eksporti kengayadi va xalqoro sifat sertifikatlariga erishiladi.

2. Respublika aholisining o'sib borayotgan sifatli dehqonchilik maxsulotlariga bo'lgan ehtiyojini qondirilib, xaridorlarning sifatli qishloq xo'jaligi dehqonchiligini tovarlarni tanlash imkoniyati oshadi.

3. Respublikada qishloq xo'jaligi dehqonchiligi innovatsion maxsulotlarni sotishni bo'yicha xususiy tadbirkorlar roli oshadi.

4. Qishloq xo'jaligi dehqonchiligi mahsulotlari ishlab chiqarish imkoniyatlari kengayib, fermer xo'jaliklarida pul aylanmasi tezligi oshadi va natijada olinadigan daromad ko'payib, ularning sifat bo'yicha raqobatlashish imkoniyati yaratilishi.

Ta'kidlash joizki, respublikamiz qishloq xo'jaligi dehqonchiligi innovatsion asosda rivojlantirish hamda innovatsion mahsulot ishlab chiqarish jarayonini chuqur o'rganishdan kelib chiqib, shunday xulosa qilish mumkinki, mazkur sohani "O'zbekiston-

2030” strategiyasiga mos quyidagi strategik yo’nalishlarini rivojlantirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

1. Qishloq xo’jaligi dehqonchiligi bo’yicha Respublikani har bir tumanida ilm va innovatsiyalar asosida rivojlanish imkoniyatini yaratuvchi ko’maklashuvchi markazlar tashkil etishni ko’paytirish.

2. Qishloq xo’jaligi dehqonchiligini innovatsion asosda rivojlantirish uchun ararlogistika markazlari faoliyatini yo’lga qo’yishni rivojlantirish.

3. Qishloq xo’jaligi dehqonchiligini innovatsion asosda rivojlantirish maqsadida yer munosabatlarini isloh qilishni kuchaytirish orqari yer maydonlarini ijaraga berish huquqini garovga qo’yish mexanizmini joriy etishni rivojlantirish.

4. Qishloq xo’jaligi dehqonchiligi bilan shug’ullanuvchi dehqon va fermer xo’jaliklariga beriladigan subsidiyalarni yagona “Agrosubsidiya” platformasi orqali “Bir qadama” tamoyili asosida taqdim etish orqali innovatsion samaradorlikka erishish.

5. Qishloq xo’jaligi dehqonchiligida innovatsion mahsulotlarini sug’urta qilish tizimini rivojlantirish orqali yuqori natijadorlikka erishish

Xulosa

O’zbekistonda qishloq xo’jaligi dehqonchiligini innovatsion asosida rivojlantirish uchun davlat tomonidan tartibga solishning asosiy yo’nalishlari quyidagilar hisoblanadi:

I. Respublikada qishloq xo’jaligini dehqonchiligini innovatsion asosida rivojlantirish bo’yicha davlat tomonidan kreditlash va kredit resurslari bilan ta’minlashni amalga oshirish. Bunda:

- Kredit mablag’larini rivojlantirish hisobiga qishloq xo’jaligi dehqonchiligini innovatsion asosida rivojlantirish uzluksizligini ta’minlanadi.

- Kredit mablag’lari hisobiga yangi texnika va texnologiyalarini qishloq xo’jaligi dehqonchiligini innovatsion asosida rivojlantirish bo’yicha xarajatlarni tejash imkoniyati oshiriladi.

- qishloq xo’jaligi dehqonchiligini innovatsion asosida rivojlantirishda fermer xo’jaliklariga qarz berish va ushbu qarzni undirish kredit mablag’lari orqali amalga oshirilish natijasida dehqonchilik sohasini iqtisodiy o’sishini ta’minlanadi.

- Kredit orqali qishloq xo’jaligi dehqonchiligida innovatsion mahsulotlar ishlab chiqaruvchi subektlari faoliyati ustidan nazorat o’rnatiladi.

II. qishloq xo’jaligi dehqonchiligini innovatsion asosda rivojlantirishni davlat tomonidan qo’llab-quvvatlash bo’yicha soliq siyosati, ya’ni soliq yukini kamaytirish soliq kafolatlari va imtiyozlarini berilishi yangiy iqtisodiy imkoniyatlarni yaratadi. Bunda:

- qishloq xo’jaligi dehqonchiligini soliq yukini kamaytirish natijasida soliq to’lovchilar (qishloq xo’jaligi dehqonchiligi bilan shug’ullanuvchi fermer xo’jaliklari) ixtiyorida qolgan mablag’larini samarali foydalanish orqali xarid talabini jadal o’sishni ta’minlaydi.

- Soliq tizimini soddalashtirish natijasida soliq stavkalarini pasaytirish, o’z navbatida qishloq xo’jaligi dehqonchiligini xususiy biznes va xususiy kapital uchun qulay va kafolatlangan muhit yaratiladi.

- qishloq xo'jaligi dehqonchiligi bilan shug'ullanuvchi fermer xo'jaliklariga beriladigan soliq imtiyozlari asosida xorijiy investitsiyalarini jalb etish imkoniyati kengayadi.

- Soliq islohatlari va soliq yukini kamaytirish natijasida va berilgan imtiyozlar asosida qishloq xo'jaligi dehqonchiligi innovatsion mahsulotlari eksportini har tomonlama rag'batlantirilib natijada valyuta zaxiralari kengayadi.

III. qishloq xo'jaligi dehqonchiligini innovatsion asosda rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning tashkiliy-ma'muriy huquqiy-iqtisodiy tizimi yo'nalishi bo'yicha quyidagilarni amalga oshirish muhim hisoblanadi. Bunda:

- Respublika qishloq xo'jaligi dehqonchiligini innovatsion asosida mahsulot ishlab chiqarishni yo'lga qo'yuvchi sohasida yuqori bilimga ega bo'lgan malakali kadrlarni tayyorlash.

- qishloq xo'jaligi dehqonchiligini bo'yicha investitsion mahsulotlarini yaratuvchi istiqbolli biznes rejalar ishlab chiqish.

- qishloq xo'jaligi dehqonchiligi innovatsion mahsulotlarini sotish bo'yicha marketing diagnostikasini shakllantirish.

- qishloq xo'jaligi dehqonchiligi innovatsion mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun raqamli axborotlar va raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarini yaratuvchi, dehqonchilik bo'yicha yangi innovatsion hududni (dehqonchilik hududiy klaster) shakllantirish va boshqa shu kabilardan iborat.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi.//Xalq so'zi, 2020 yil 25 yanvar

2. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi.-T.: "O'zbekiston" NMIU, 2018,23 bet

3. Шумпетер Й.А. История экономического анализа: в 3 т. – СПб.: Экономическая школа, 2003.

4. Rogers, E. M., Singhal, A., & Quinlan, M. M. (2014). Diffusion of innovations. In An integrated approach to communication theory and research (pp. 432-448). Routledge.

5. Edquist, C. (2010). Systems of innovation perspectives and challenges. African Journal of Science, Technology, Innovation and Development, 2(3), 14-45.

6. Kline, S. J., & Rosenberg, N. (2010). An overview of innovation. Studies on science and the innovation process: Selected works of Nathan Rosenberg, 173-203.

Copyright: © 2024 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

